

UDK.632

**DORIVOR TIRNOQGUL O'SIMLIGIGA ZARAR KELTIRUVCHI
TUNLAMLARGA QARSHI ENTOMOFAGLARNING
SAMARADORLIGI**

Ro'ziqulov Davlatbek Nazaraliyevich, katta o'qituvchi

Safoyeva Madina Samandar qizi, talaba

Kadirova Malika Gulam qizi, talaba

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis* L.) o'simligining asosiy zararkunandalarini bioekologiyasini o'rganish asosida ularni miqdorini boshqarish usullarini ishlab chiqish hamda zararkunandalarni tur tarkibi, biologik xususiyatlari, tarqalishi, zararini o'rganish asosida ularni sonini boshqarishda biologik himoya qilish usulini amalga oshirish.

Kalit so'zlar: Dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis* L.), brakon, tunlamlar .

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЭНТОМОФАГОВ ПРОТИВ СОВКИ,
ВРЕДЯЩИХ ЛЕКАРСТВЕННОЙ КАЛЕНДУЛЫ РАСТЕНИЮ**

Аннотация. В данной статье на основе изучения биоэкологии основных вредителей календулы лекарственной (*Calendula officinalis* L.) разрабатываются и реализуются методы биологической защиты для управления их численности на основе изучений видового состава, биологических особенностей, распространения и вредоносности вредителей.

Ключевые слова: Календула лекарственная, бракон, совки.

KIRISH: Respublikada o'simliklarni himoya qilish sohasida atrof-muhit, insonlar va jonzotlar uchun bezarar bo'lgan biologik kurash usulini qo'llashga

katta ahamiyat berilmoqda. Dorivor ekinlar yetishtiriladigan maydonlarni kengayishi bilan bu o'simliklarga zarar yetkazib yashovchi zararkunandalarning tur tarkibi ham ko'payib boradi. Tabiiy dori-darmonlarni yetishtirish esa ekologik jihatdan toza bo'lishni talab qiladi. Dorivor o'simliklardan yuqori hosil olishning asosiy omillaridan biri bu ularni zararkunandalardan himoya qilishdir. O'zbekiston respublikasi prezidentining PQ-4670-sonli 10.04.2020 qarori "Yovvoyi holda o'suvchi doivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" Respublikada so'nggi yillarda dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dorivor o'simliklar yetishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu Qarorda dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashni yanada rivojlantirish, sohaning eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, ushbu sohada ta'lim, fan va ishlab chiqarish jarayonlarini birlashtirish zarurati belgilab qo'yilgan. 2020 yil 1 maydan boshlab dorivor o'simliklarni yetishtirish, saqlash, birlamchi yoki chuqur qayta ishlash uchun klasterlar yaratish, shuningdek, dorivor o'simliklarni yetishtirish bo'yicha hududlarni ixtisoslashtirish ishlari belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 20.05.2022 yildagi PF-139-son "Dorivor o'simliklar xomashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" Dorivor o'simliklar xomashyo bazasidan samarali foydalanish, kasalliklarning oldini olish va davolashda dorivor o'simliklarni keng qo'llash, dorivor o'simliklarning madaniy plantatsiyalarini barpo etayotgan hamda tadbirkorlik subektlarini qo'llab-quvvatlash orqali chuqur qayta ishlashni tashkil etish, dorivor o'simliklar yetishtirish bo'yicha hududlar kesimida ixtisoslashtiriladi. Bunda, 2022-yildan 2026-yilgacha 36 000 gektar maydonda yangi dorivor o'simliklar plantatsiyalari tashkil etiladi.

Qishloq xo'jaligi – O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblanadi. Bu tarmoq mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining esa xom-ashyoga bo'lgan talabini qondiradi. Oziq-

ovqat mahsulotlarining 90 foizga yaqini agrar tarmoqda tayyorlanadi. Qishloq xo'jaligi respublikamizning iste'mol bozoriga oziq-ovqat mahsulotlari va qayta ishlash sanoatiga xom-ashyo yetkazib berish bilan birga, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati kabi bir qator tarmoqlar mahsulotlari uchun kafolatli bozor bo'lib ham hisoblanadi. Qishloq xo'jalik ekinlaridan mo'l hosil olish va yetishtirilgan hosilni saqlab qolishdagi asosiy omillardan biri zararkunanda, kasallik va begona o'tarlardan himoya qilishdir.

Dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis* L.) o'simligining asosiy zararkunandalarini zararkunandalariga qarshi kurashda yirtqich entomofaglarining samaradorligini aniqlash hamda dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis* L.) o'simligining asosiy zararkunandalarini agrobiotsenozda uchraydigan entomofaglarni ko'paytirish kerak. Tadqiqotning obyekti sifatida dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis* L.) o'simligining asosiy zararkunandalarini parazit va yirtqich, entomofaglari aniqlangan. Dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis* L.) o'simligining asosiy zararkunandalarini bioekologiyasini o'rganish asosida ularni kemiruvchi tunlamlariga qarshi kurashish natijalari asosida g'o'za tunlami, kuzgi tunlam qurtlariga qarshi brakon entomofagi 1:5, 1:10, 1:15 nisbatlarda qo'llanilganda biologik samaradorlik 65-70% ni tashkil etdi.

Xulosa. Dorivor tirnoqgul farmasevtika sanoati uchun qimmatbaho dorivor o'simlik bo'lganligi sababli uning hasharotlariga qarshi kimyoviy preparatlarni zarur bo'lmasa ishlatmaslik maqsadga muvofiq hisoblanadi. Dorivor tirnoqgul o'simligi kuchli zarar keltiruvchi tunlamaridan g'o'za tunlami va kuzgi tunlam qurtlariga qarshi kurashda asosan birinchi tashkiliy – xo'jalik tadbirlarini shuningdek, zararkunandalarga qarshi agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va yuqori sifatli qilib o'tkazish, hamda ushbu tunlamlarning bioekologiyasini yaxshilab o'rgangan holda, zarar yetkazish muddatlarini voqtida aniqlash va feromon tutqichlarni voqtida quyib unga tushgan tunlamlarning kapalaklarini sonini nazorat qilish hamda kapalaklar paydo bulishi bilan kechiktirmasdan brakon entomofagini tarqatish yaxshi samara beradi va sifatli, ekologik toza hosil olishga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dusmanov I., Xolliyev A. O'simliklar zararkunanda kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari. Tavsiyanoma. 2015.
2. Xo'jayev SH.T., Xolmurodov E.A.-"Entomologiya, o'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. Toshkent, "Fan" nashriyoti, 2009. .
3. A.Murodov-Umumiy entomologiya kursi "Mehnat" nashriyoti Toshkent 2003.
4. O'.Ahmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M.Yulchieva. Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya Toshkent – 2009
5. O'zbekistonda vatan topgan dorivor o'simliklar. – Toshkent: Fan, 1984.
6. Dorivor o'simlik zararkunandalari. B.Q.Muxammadiyev, A.T.Xolliyev, N.Irgasheva,A.Xasanov ,T.: "ToshDAU tahririyat nashriyot" bo'limi, (o'quv qo'llanma). 2019.